

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI**

“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

**“TIQXMMI” MTuning QARSHI IRRIGATSIYA VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

**SUV RESURSLARIDAN SAMARALI
FOYDALANISH: MUAMMO VA YECHIMLAR
(JANUBIY VILOYATLARDA SUG‘ORILADIGAN
YERLAR MISOLIDA)**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MAQOLALAR TO‘PLAMI

2022 yil 11-12 mart



Qarshi shahri

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvardagi "Ilmiy-innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 24-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko'lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni samarali o'tkazish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 7 martdagi 101-F-son farmoyishi bilan tasdiqlangan reja asosida "TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti 2022 yil 11-12 mart kunlari o'tkazilgan "Suv resurslaridan samarali foydalanish: muammo va yechimlar (Janubiy viloyatlarda sug'oriladigan yerlar misolida)" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to'plamida Respublikada jumladan, janubiy mintaqalarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv tejamkor sug'orish texnologiyalari, gidrotexnika va gidroenergetika, qishloq va suv xo'jaligidagi energetika-avtomatika muammolari, tabiiy resurslarni boshqarish, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, yer resurslari, qishloq va suv xo'jaligida raqamli texnologiyalar, tabiiy resurslar, irrigatsiya va agrotexnologiyalar sohalari fanlarini o'qitishda innovatsion ta'lim metodlari bo'yicha xalqaro tajribalar almashish, shuningdek, sohaga aloqador mutaxassislar, talabalar va fermer xo'jaliklari raxbarlarini amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlar bilan tanishtirish hamda sohani rivojlantirish uchun ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda tahliliy mulohazalar bildirilgan.

Ushbu to'plamning chop etilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining ilm-fan sohasidagi farmonlari, qarorlari ijrosini amalga oshirishga bag'ishlangan.

Taqdim etilayotgan to'plam qishloq va suv xo'jaligi sohasi mutahasislari hamda keng jamoatchilikka mo'ljallangan.

To'plamga kiritilgan ma'lumotlar to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir.

© "TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, 2022 y.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28 апрелдаги “Рақамли иктисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ4699-сон қарори.

QASHQADARYO VILOYATINING UMUMIY YER MAYDONLARINING TASNIFI

1-bosqich tayanch doktoranti Ne'matov Izzatillo Rahmat o'g'li
“O'zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qashqadaro viloyatining umumiy yer maydoni to'g'risida so'z yuritilgan bo'lib, viloyatning respublika umumiy yer fondi tarkibida ulushi va salohiyati bo'yicha statistik ma'lumotlart berilgan.

Kalit so'zlar: relyef, yer fondi, qishloq xo'jaligi yerlari, demografik holat, sho'rlanish, global, qurg'oqchilik

Аннотация. В данной статье рассматривается общая площадь земель Кашкадарьинской области и приводится статистика доли и потенциала региона в общем земельном фонде республики.

Ключевые слова: рельеф, земельный фондземли сельскохозяйственного назначения, демографическая состояния, засоленность, глобальный, засуха.

Annotation. This article discusses the total land area of the Kashkadarya region and provides statistics on the share and potential of the region in the total land fund of the republic.

Key words: relief, land fund, agricultural land, demographic situation, salinity, global, drought

Kirish. Yer umummilliy boylikdir, O'zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi.[1] Ular o'zining hududi, iqlimi, tuproq qatlami, relyefi, gidrogeologik sharoitlari va gidrografik, o'simlik dunyosi va boshqa belgilari bilan tavsiflanadi, xalq xo'jaligi tarmoqlarini va aholini joylashtirish uchun asos, qishloq va o'rmon xo'jaliklarida esa asosiy ishlab chiqarish vositasi vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda eng dolzarb bo'lib turgan muammolardan biri aholini tabiiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Demografik holatiga e'tibor qartadigan bo'lsak, aholi sonining yildan yilga sezilarli miqdorda o'sib kelayotgani va 30 yildan so'ng bir necha barobar ko'payishini bilib, ammo yer miqdorining o'zgarmasligini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab yildan yilga ortib borayotgan bir paytda, global o'zgarishlar natijasida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning holatining yomonlashuvi, qurg'oqchilik, saxrolanish jarayonlarining kuchayishi, tuproqlarning meliorativ holatining buzilishi va sho'rlanish kabi salbiy ta'sirlar yuzaga kelmoqda. Bular esa albatta qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning bir qarich maydonidan ham oqilona va tizimli foydalanish, bu yerlarni alohida muhofaza etishni yanada takomillashtirish kabi dolzab masalalarni oldimizga qo'yimoqda.[2]


O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2021 yil 1 yanvar holati ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasining ma'muriy chegarasidagi umumiy yer maydoni 44892,4 ming gektarni tashkil etib, shundan, Qashqadaryo viloyatining umumiy yer maydoni

2856,8 ming ga dan iborat.Shundan 513,5 ming ga maydoni sug'oriadigan yerlardir.Viloyat yer fondi toifalari bo'yicha taqsimlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.[3]

T/r	Yer fondi toifalari	Maydon (ming gektar hisobida)	Umumiy maydonga nisbatan %
1	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	2321,8	81,3
2	Aholi punkti yerlari	12,4	0,4
3	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar	67	2,4
4	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar		
5	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	2,6	0,1
6	O'rmon fondi yerlari	412,1	14,4
7	Suv fondi yerlari	37,1	1,3
8	Zahira yerlar	3,8	0,1
	Jami:	2856,8	100

Jadvaldan ko'rinib turibdiki viloyat yer fondining eng katta qismini qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer turlari tashkil etib, bu umumiy hududning 81.3 % ga teng.

Qashqadaryo viloyati umumiy maydoni vasug'oriladigan yerlarning tumanlar kesimida taqsimlanishi 1-rasmda keltirilgan [4]



1-rasm: Viloyat umumiy maydonining tumanlar kesimida taqsimlanishi

Viloyatda sug'oriladigan tuproqlarga nisbatan cho'l mintaqasi tuproqlari, lalmi tuproqlari va balandlik mintaqasining tuproqlari ko'proq tarqalgan bo'lib, sug'oriladigan tuproqlarning sho'rlanishi bo'yicha kuchsiz va o'rta darajada sho'rlangan tuproq turlari kengroq tarqalgan.

Kuchli va juda kuchli darajada sho‘rlangan tuproqlar unchalik ko‘p emas. Viloyatda sho‘rlangan yerlar 205757,2 gektarga teng bo‘lib, viloyat sug‘oriladigan yerlarining 63,2 % ni tashkil etadi. [5]

Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha yuqori salohiyatga ega bo‘lgani bilan bir qatorda, suv tanqisligi sababli qishloq xo‘jaligi yerlaridan to‘laqonli foydalanish imkoni mavjud emas. Viloyatning asosiy suvga bo‘lgan ehtiyojini Tallimarjon, Pachkamar, Chimqo‘rg‘on, Hisorak, Qizilsuv suv omborlari, Sechanko‘l tabiiy suv havzasi va Yakkabog‘, Kitob, Shahrisabz tumanlarining yer osti suv zahiralaridan foydalangan holda ta‘minlanadi. Hozirgi vatga kelib ushbu yer osti zahiralaridan suv ta‘minoti maqsadida meyoridan ortiq foydalanilmoqda. Natijada yer osti chuchuk suv saxirasi sezilarli darajada pasaygan.

Inson omili ta‘sirida vujudga kelayotgan ekologik o‘zgarishlar vohada o‘z ta‘sirini ko‘rsatmasdan qolmayapti va cho‘llanish darajasini ortishiga sabab bo‘lmoqda. Jumladan iqlim o‘zgarishi, yillik yog‘ingarchilikning meyoriy darajada bo‘lmayotganligi, global isish hodisalari tabiatning me‘yoriy muvozanati buzilganligini ko‘rsatmoqda. Bularning barchasi esa albatta qurg‘oqchil hududlarning yanada ortishiga sabab bo‘lmoqda va qishloq xo‘jaligi sohasida ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. [2]

Xulosa: Viloyatning umumiy maydoniga nisbatan sug‘oriladigan yerlarning kamligi va bu sug‘oriladigan yerlarning yildan yilga suv tanqisligi va yog‘ingarlichilik miqdorining yetarli darajada emasligi sababli kamayib borayotganligini inobatga olib, tezkor ravishda chora-tadbirlar ko‘rishni talab etadi. Jumladan viloyatda aniq yer hisobini yuritish bilan bir qatorda, bir necha yilga mo‘ljallangan istiqbolli reja asosida yerlardan samarali foydalanishimiz zarur. Bunda albatta suv tejankor texnologiyalarni qo‘llagan holda suvlardan oqilona foydalanish, sho‘rlanishga qarshi zarur choralarni ko‘rish, yangi kollektor va zovur tarmoqlarini qurish, mavjudlarida qaytadan rekonstruksiya (Qayta ta‘mirlash) ishlarini amalga oshirish, tuproqning sho‘r yuvish me‘yorlarini hisobga olgan holda tuproqning sho‘rlanish darajasining oshib ketishiga qarshi ishlarni o‘z vaqtida amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadbirlarni amalga oshirish viloyatning qishloq xo‘jaligi sohasida va boshqa sohalarda barqaror suratlar bilan rivojlanishini va iqtisodiy tomondan moliyaviy barqarorligining sezilarli ko‘tarilishini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi, 1998.
2. Narbayev Sh.K., Ne‘matov I.R. Qashqadaryo viloyatining qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish holati va muammolari // “O‘zbekiston zamini” ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal.- Toshkent: “O‘zdavyerloyiha” DILI, 3/2021.-25-b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to‘grisida milliy hisobot-Toshkent, 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasining Yer fondi-Toshkent, 2021.
5. O‘zbekiston sug‘oriladigan yerlarining meliorativ holati va ularni yaxshilash – Toshkent, “Universitet”, 2018. – 83 b.

СУҒОРИЛАДИГАН ЭКИН ЕР МАЙДОНЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ

**таянч докторанти Кутлимуротов Ж.Н.
“Ўздаверлойиха” ДИЛИ**

Аннотация. Республикамиз ер фондининг асосий тоифаси ҳисобланган қишлоқ хўжалик мақсадларига мўлжалланган ва махсус муҳофаза қилинадиган суғориладиган экин ерларнинг ҳозирги миқдорий ҳолати, ушбу ерлардан самарали фойдаланиш бўйича масалалари ёритилди.

Таянч сўзлар: қишлоқ хўжалиги, суғориладиган ерлар, экин ерлар, сув ресурслари, сувдан фойдаланиш, фермер хўжалик, мониторинг, сувни тежовчи технологиялар.

Аннотация. Были освещены вопросы о текущем количественном состоянии орошаемых земель, эффективном использовании этих земель, предназначенных для

МУНДАРИЖА

	Сўз боши	3
	I – SHO‘BA. SUG‘ORILADIGAN YERLARNING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH VA SUV TEJAMKOR SUG‘ORISH TEXNOLOGIYALARI	5
1.	М.Н Чулиев, А.Б.Рўзимуродов. Суғориладиган майдонларда томчилатиб суғориш тизимини урнатиш ва ундан туғри фойдаланиш	5
2.	Д.Б.Иргашев. Ток қатор ораларини юмшатиш ва суғоришни ечимлари	7
3.	З.Ж.Худояров, А.М.Турсунов, Р.И.Зайнулин. Возобновляемая энергия при переработке сельскохозяйственной продукции	9
4.	С.М.Гаппаров, А.А.Ўтаев, З.Т.Джумаев, З.Ж.Худоёров. Қишлоқ хўжалиги экинларини ёмғирлатиб суғориш истикболлари	12
5.	Z.S. Shoxo‘jaeva, Eshboboev M.Z. Qishloq xo‘jaligida tomchilatib sug‘orish texnologiyalardan foydalanish yo‘nalishlari	15
6.	З.С. Шохўжаева. Сув ресурсларини бошқаришнинг институтционал асослари	18
7.	Н.Ж.Маманазарова, З.С. Шохўжаева. Суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш борасида хорижий мамлакатларнинг илғор тажрибасидан фойдаланиш	22
8.	А.Б.Рўзимуродов. Ш.Т.Жўрақулович. Самарканд вилояти тупроқларининг мелиоратив ҳолати ва замонавий суғориш тизимларини жорий этиш масалалари	26
9.	А.Б.Рўзимуродов, Ҳ.Қодиров. Боғларни томчилатиб суғоришни ўзига хос хусусиятлари	31
10.	S.Xidirov, B.Norkulov, N.Xolmatjanov, A.Qurbonov, G.Berdiyeva. Amudaryoning o‘rta oqimida o‘zan jaryonlarini baxolash	34
11.	D.Bazarov, S.Xidirov, B.Norkulov, N.Xolmatjanov, A.Qurbonov. Qarshi magistral kanali 1-nasos stansiyasiga suv olib kelish sohasidagi dala tadqiqot natijalari	38
12.	SH. P.Xo‘shiyev, M.N.Chuliyev, A.B.Ro‘zimurodov, D.Sarmonova. Suv gidravlik zarbasi paydo bo‘lishining oldini olish	43
13.	J.Pirimqulov, D.Mo‘minova, N.Muazzamov. Fundamentals of organization of rational and efficient use of land	46
14.	J.P.Pirimqulov, D.D.Mo‘minova, N.F.Muazzamov. Important aspects of improving the efficiency of irrigated land use	49
15.	U.Uktamov, Y.Alijonova . Qo‘rg‘ontepa suv omborining o‘ziga hos hususiyati	51
16.	З.Худоёров, Ш.Мирзаходжаев, А. Турсунов. Ёмғирлатиб суғоришда сув томчисининг тупроқ юзасига зарбасини назарий тадқиқоти	53
17.	Ш.Мурадов, Ф.Турдиева, М.Махаммадиева. Ирригация бу гиперирригация + субирригация	56
18.	A.SH.Suyunov, T.F.Shopulatov, Y.U.Norov. Suvdan oqilona foydalanish	59
19.	A.SH.Suyunov, T.F.Shopulatov, SH.B. Xursandov . Suv resursi qishloq xo‘jaligi sohasi negizida	61
20.	A.SH.Suyunov, T.F.Shopulatov, SH.B. Xursandov. Sug‘orishning tejamkor texnologiyalari	63
21.	Т.О.Дониёров, Ғ.Ж.Турсунов. Шўрланган тупроқ мелиоратив ҳолатини яхшилашда янги технологиялар	65
22.	A.N.Isoqov, N.Z.Mamatov. Sirdaryo viloyati boyovut tumanining hozirgi davrdagi sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati va rejimi.	68

3.	Имомқулов Қ.Б., Нишанбоев Н.Н., Халилов Ж.М. Интенсив олма боғлар архитекtonикасига дарахтларнинг илдиз морфологияси	607
4.	G'ulomxasanov E.M. Hakimova Sh. Yer resurslari, qishloq va suv xo'jaligida raqamli texnologiyalar	612
5.	Уринов Ж. Ч, Бобомуродова Ш.Ш, Хамраева Д. Ерлардан оқилона фойдаланиш иктисодий ривожланиш асоси	613
6.	Avilova N.F Gat asosida gidrotexnika inshootlarini loyihalashda geodezik va topografik ishlarni bajarish usullarini takomillashtirish (qashqadaryo viloyati misolida)	616
7.	Д.Б.Иргашев. Узумзор катор ораларини юмшатадиган плуг-юмшатгич	619
8.	Rahimov A.R, Quvvatov U.J., Mamatov N.Z. Isaqov A.N. Bobomurodov F.F. Daryo qirg'oqlarida joylashgan suv qabul qilish inshootlarini takomillashtirish	622
9.	Rahimov A.R, Quvvatov U.J., Mamatov N.Z. Isaqov A.N. Bobomurodov F.F. Yer osti suvlaridan manbaa sifatida foydalanishni takomillashtirish	625
10.	Rahimov A.R., Quvvatov U.J., Norchayev A.J., Isaqov A.N., Zaripov M.B. O'zbekiston sharoitida shamol energiyasidan foydalanishni takomillashtirish istiqbollari	628
11.	Махсудов М.Д. Ер фондидан фойдаланишни диверсификациялашда ARCGIS Pro дастурий таъминотидан қўллаш имкониятлари	630
12.	Махсудов М.Д. "YAT PORTAL" маълумотларидан ерларни йўқламадан ўтказишда фойдаланиш	635
13.	Лутфуллаев А. Рақамли технологиялардан ер ресурслари, қишлоқ ва сув хўжалигида фойдаланиш	641
14.	Ne'matov I. Qashqadaryo viloyatining umumiy yer maydonlarining tasnifi	646
15.	Қутлимуротов Ж.Н. Суғориладиган экин ер майдонларидан самарали фойдаланиш	648
16.	Mejliyeva X.B. Shog'darov D.D. Axmatov A.O., Rustamov J.R. Gulov SH.M. Yer uchastkasi ko'chmas mulk obyekti sifatida	651
17.	Курбанов А.И., Шодиев Б.Н., Назарова Ш.М., Исмоилов Н.Д. Гарантирования воды насосных станций	657
18.	Latipov SH.A, Norchayev A.J, Mamarasulov S.R, Vafoyeva A.T, Nuriddinov SH.SH, Normatov CH.Q. Katta gruntli kanallardagi oqimning yuvmaslik tezliklarini hisobi	662
19.	O.Pirimov, D.Normurodov. Qishloq va suv xo'jaligi ishlab chiqarishni avtomatlashtirish jarayoni	664
20.	Ғ.Н. Алиқулов, С.Тураев, Л.Файзуллаева. Ер муносабатларида учрайдиган айрим муаммо ва унинг ечимлари	666
	V – SHO'BA. TABIIY RESURLAR, IRRIGATSIYA VA AGROTEXNOLOGIYALAR SOHALARI FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM METODLARI	671
1.	Ж.Ч. Уринов, А.Э. Хакбердиев, Д.Ш.Муртозова, М.Б. Бахриев. Чўл-яйлов чорвачилиги муаммолари ва уларнинг ечими	671
2.	Aralov M.M. Bo'lajak muhandislarni kartografik chizmachilik fanini o'qitishda kompetentlik darajasini shakllantirish	673
3.	Aralov M.M. Muhandislik yo'nalishi talabalariga kartografik chizmachilik fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish va kompetentlik darajasini shakllantirish	677
4.	С.О.Мирзаев. Қишлоқ ва сув хўжалигида сувдан фойдаланиш этикасини ўргатиш методикаси	681